

O'QUVCHILARDA MILLATLARARO MULOQOT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING XALQNING MILLIY-TARIXIY TAJRIBALARI, MADANIY BOYLIKLARIDAN FOYDALANISH RO'LI

Atamurodov Dilshod Olimboy o'g'li

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotasiya:

Ushbu maqolada bo'lajak o'quvchilarda millatlararo muloqot madaniyatini shakllantirishda bir-birini tushunish esa xalqning milliy-tarixiy tajribalari, madaniy boyliklari, adabiyoti va san'atini o'rganish orqali anglash masalalariga e'tibor qaratilgan. Millatlararo muloqot madaniyati rivojlantirishda o'qituvchi bilan ota-onalarning hamkorligi ham muhim o'rini haqida ham fikr yuritiladi. Ushbu maqolada bo'lajak o'qituvchilarni millatlararo muloqot madaniyatini shakllantirishga umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi o'quv tarbiya jarayonlarida o'qituvchilar o'quvchilarning diniy tasavvurlari va dunyoqarashini e'tiborga olishi haqida ham fikr yuritiladi.

Tayanch so'zlar: bag'rikenglikni shakllantirish, san'at namunalari, xalq og'zaki ijodi, xalq baxt saodati, yetakchi kompetensiya, axloqiy ong, xalq maqollari, samarali idrok.

Turlicha millat vakillarining o'zaro muloqot sifatiga e'tibor qaratish ham bo'lajak o'qituvchilar uchun ham alohida ahamiyatga ega. Chunki sifatli muloqot hayotiy faoliyatning barcha sohalarida shaxsning tabiiy tarzda rivojlanishini ta'minlaydi. Bu ayniqsa, millatlararo munosabatlarda muhim ahamiyatga ega. Turli millat vakillari o'zaro bir-birini tushunish natijasida bir-birlarining madaniyatlarini va dunyoqarashlarini boyitishga muvaffaq bo'ladilar. Bir-birini tushunish esa xalqning milliy-tarixiy tajribalari, madaniy boyliklari, adabiyoti va san'atini o'rganish orqali amalga oshadi. Masalan, o'zbek xalqining madaniyati, san'ati va adabiyotida ko'p asrlar davomida turli millat vakillarining birgalikdagi hayot tarzi, insoniy munosabatlari, do'stligi, muhabbati kuylangan. Birgina, A.Navoiyning Xamsasi tarkibiga kiradigan barcha dostonlarda turli millat vakillari orasidagi do'stlik, hamjihatlik, muhabbat tarannum etilgan. Farhod va Shirin, Bahrom va Dilorom turli millat vakillari bo'lgani holda bir-birining yurtini obod qilishga intilgan. Ushbu dostonlarda turli millat vakillari xalq baxt saodati, ona zamon obodligi uchun bo'lgan fidokorligi e'tirof etilgan. A.Navoiy va Abdurahmon Jomiyning do'stligi, ustoz shogird do'stligi millatlararo munosabat nuqtai nazaridan alohida qiymatga ega. Uzoq yillarda davomida millatlararo munosabatlar etnomadaniy qadriyat sifatida namoyon bo'lib kelgan. Millatlararo munosabatlarga bag'ishlanga adabiyot va san'at namunalari, xalq og'zaki ijodi bilan bo'lajak o'qituvchilarni yaqindan tanishtirish, ularni har har tomonlama o'qib o'rganishga undash orqali talabalarni

talabalarni o'quvchilarni millatlararo muloqot madaniyatga oid tayyorlashga oid imkoniyatlari kengayadi. Shoh va shoir Boburning Boburnoma asarida millatlararo munobatlar, ular orasidagi muloqot madaniyat, milliy hamda diniy tolerantlik masalalari keng ko'lamda yoritilgan. Boburnoma asarida bo'lajak o'qituvchilarda, o'quvchilarda millatlararo munosabatlarni shakllantirishda muhim manba vazifasini o'taydi. Unda turli mamlalakatlar va millatlarning o'ziga xos jihatlari, madaniyati, san'ati, tarixi, urf-odatlar, o'simlik va hayvonot olami aniq bayon qilingan bo'lib, bo'lajak o'qituvchilarning millatlar va xalqlar, ularning madaniyati haqidagi tasavvurlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Ko'rinib turibdiki, ajdodlarimiz merosi bo'lajak o'qituvchilarni o'quvchilarda millatlararo muloqot madaniyatini shakllantirishga tayyorlashda eng asosiy manba hisoblanadi. Xalq og'zaki ijodida o'z ifodasini topgan etnopedagogik qadriyatlar esa turli millat vakillari bo'lgan o'quvchilar orasida do'stlik, hamkorlik, hamdardlik, hamjihatlik, sadoqat ko'rsatish, halollik, jo'mardlik sifatlarini tarkib toptirishda muhim o'rin egallaydi. Bu jihatdan o'zbek xalq ertaklari, sharq xalq ertaklari, rus xalq ertaklari va jahon xalqlarining og'zaki ijod namunalari, rivoyatlar, xalq maqollari, Alpomish, Oshiq G'arib va Shaxsanam, Farhod va Shirin, Go'ro'g'li turkumidagi dostonlar, Yusuf va Zulayho dostoni kabi ko'plab manbalar bo'lajak o'qituvchi va o'quvchilarda millatlararo muloqot madaniyati sohasida ota-bobolarimiz qanchalik ilgari ketganliklari haqidagi keng ko'lamli tasavvurni shakllantirishga xizmat qiladi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, millatlararo muloqot va munosabat tushunchalarining har biri o'ziga xos ahamiyatga ega. Millatlararo muloqot madaniyati muayyan me'yorlar va qoidalar majmuidan iborat. Uning asosiy xususiyati aniqligidir. Millatlararo muloqot me'yorlar va qoidalar majmui bo'lish bilan bir qatorda millatlararo munosabatlarni o'zida nmujassamlashtiradi. Biroq millatlararo munosabatlar keng tushuncha bo'lib, o'ziga xos yo'nalishlarga ega.

O'zbek xalqining milliy-ma'naviy boyliklari va umuminsoniy qadriyatlar diniy qadriyatlar bilan uyg'un tarzda o'quvchi-yoshlarni tolerantlik va xalqlar do'stligi ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi. Bu o'rinda, umuminsoniy ideallarning o'quvchilar ongiga ko'rsatadigan ta'sirini ham alohida hisobga olish talab etiladi. Mazkur ideallar birinchi navbatda, o'zbek xalqining boy tarixiy madaniy merosida o'z ifodasini topgan bo'lib, diniy va millatlararo tolerantlik ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladigan manbalar orqali yosh avlodga taqdim etiladi. Bunday manbalar sirasiga, badiiy va tarixiy asarlar, tasviriy san'at namunalari, ilmiy-ommabop manbalar, tarixiy obidalar, mutafakkir ajdodlarimizning merosi va xalq og'zaki ijodi namunalari, musiqa madaniyati namunalari, xalq hunarmandchiligi namunalari ko'rsatish mumkin.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'zining faoliyat mazmuniga ko'ra, O'zbekiston jamiyatining mikro modeli hisoblanadi. Shuning uchun umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi o'quv tarbiya jarayonlarida o'qituvchilar o'quvchilarning diniy tasavvurlari va dunyoqarashini

rivojlantirishga oid tarbiyaviy jarayonlarni tashkil etishlari lozim. Bunday tarbiyaviy jarayonlarda dunyodagi barcha dinlarga nisbatan o'quvchilarda pozitiv dunyoqarashni shakllantirish, o'quvchilarni har bir din vakilining e'tiqodiy qarashlarini hurmat qilish ruhida tarbiyalashga oid pedagogik faoliyat amalga oshiriladi. Bunday pedagogik faoliyatni amalga oshirishga tayyor bo'lishlari uchun bo'lajak o'qituvchilar bir qator o'zaro mazmun jihatdan yaqin bo'lgan tushunchalar orasidagi nomutanosibliklarni ham bilishlari talab etiladi. Jumladan, diniy bag'rikenglik, tolerantlik tushunchalari shular jumlasidandir.

O'zbekiston jamiyatidan bugungi taraqqiyot darajasi va ko'p millatlilik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, diniy tarbiya masalasiga yangicha kontekstdan turib yondashish talab qilinmoqda. Buning asosiy sabablaridan biri, o'quvchilarda milliy ongni shakllantirish zaruriyatining kuchayayotganligi hamda jamiyat a'zolarining o'z-o'zini anglash tuyg'usini yanada rivojlantirish muhimligi bilan izohlanadi. Shu bilan bir qatorda, tarbiya muammolari bilan shug'ullanadigan ijtimoiy institutlarning shaxsni rivojlantirish imkoniyatlari kengayayotganligi ham diniy tarbiyaga yangicha yondashuvni tadbiq etishni taqozo etmoqda. O'quvchilarda diniy bag'rikenglikni shakllantirishda o'qituvchi bilan ota-onalarning hamkorligi ham muhim o'rin egallaydi. O'quvchi va talabalarda diniy bag'rikenglikni shakllantirishda o'qituvchilar bilan bir qatorda OAV ham alohida ahamiyat kasb etmoqda. Shuning uchun bo'lajak o'qituvchilar OAV larida taqdim etilayotgan millatlararo va dinlararo bag'rikenglikka oid materiallarni sinchiklab kuzatgan holda ularni o'rganishlari maqsadga muvofiq hisoblanadi. OAVda taqdim etilayotgan materiallar o'quvchilarda millatlararo muloqot madaniyatini shakllantirishda eng samarali vositalardan biri hisoblanadi.

Buning uchun o'quv ko'rsatuvlarini ko'paytirish va ularning imkoniyatlaridan samarali foydalanishni nazarda tutish taqozo qilinmoqda. O'quvchilarda millatlararo muloqot madaniyatini shakllantirishda teleko'rsatuvlar bilan bir qatorda umumiy o'rta ta'lim maktablari ichki imkoniyatlaridan samarali foydalanish mexanizmlaridan bo'lajak o'qituvchilarini qurollantirish zaruriyati mavjud. Masalan, o'quvchilar bilan millatlararo muloqot ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladigan turli ma'rifiy tadbirlar tashkil etish, devoriy gazetalar chiqarish shular jumlasidandir. Sinf soatlarida bo'lajak o'qituvchilar pedagogik amaliyot davrida o'quvchilarda millatlararo muloqot madaniyati va diniy bag'rikenglikni shakllantirishga xizmat qiladigan mavzularda suhbatlarni tashkil etishlarini nazarda tutishlari kerak. Talabalar mazkur tadbirlarning ssenariysini tuza olishlari, millatlararo muloqot madaniyati va diniy bag'rikenglikni shakllantirishga xizmat qiladigan o'quv materiallari, illyustratsiyalar, ilmiy ommabop manbalar, xalq og'zaki ijodi namunalarini to'play olishlari, video materaillar tayyorlay olishlari alohida ahamiyatga ega. O'quvchilarda millatlararo muloqot madaniyatini rivojlantirishga ta'sir ko'rsatadigan radio eshittirishlar, teleko'rsatuvlar, internet materiallari bo'lajak o'qituvchilar tomonidan tayyorlanishi, pedagogik amaliyot davomida mazkur materiallar o'quvchilarni yaqindan tanishtirishlari,

seminar va laboratoriya mashg'ulotlarida o'quvchilarda millatlararo muloqot madaniyatini shakllantirishga yo'naltirilgan mashg'ulotlar, didaktik vaziyatlar, ommaviy tadbirlarning ssenariylari va loyihalarini tuzish ustida ishlashlarini tashkil etish ham ularda mazkur yo'nalishdagi kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Bo'lajak o'qituvchilar o'quvchilarning taqdim etilgan materiallarini samarali idrok etishlarini ta'minlash uchun ularda voqelikka nisbatan daxldorlik hissini tarbiyalash usullarini ham o'zlashtirishlari lozim. Bunda o'quvchilar idrok etadigan materiallar quyidagi talablarga javob berishi kerak. Axborotlar zaxirasining mavjud bo'lishi, o'quvchilarning qiziqishlari hisobga olingan bo'lishi, o'quvchilarda shakllangan madaniyatlik darajasiga mos kelishi kabilar. Shuning uchun o'quvchilarning taqdim etilgan axborotlarni samarali idrok etishlari uchun qulay pedagogik vaziyatlarni vujudga keltirish va mazkur vaziyatlarni samarali boshqarish metodikalarini bilishlari talab etiladi.

O'quvchilarda millatlararo muloqot madaniyatini shakllantirishda telepedagogikaning imkoniyatlaridan foydalanishga bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash o'ziga xos pedagogik jarayonlarni tashkil etishni taqozo etadi. Bunda quyidagilarga e'tibor qaratish nazarda tutilishi kerak: telepedagogikaning imkoniyatlaridan foydalanish samaradorligini ta'minlashning muhim shartlaridan biri tizimlilikni taminlashdan iborat; darsdan tashqari pedagogik jarayonlarda telepedagogikaning imkoniyatlaridan maqsadga muvofiq tarzda foydalanishga bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashga alohida e'tibor qaratish lozim; shu bilan bir qatorda, ayniqsa, o'smir yoshdagi o'quvchilarda taqdim etilayotgan axborotlarni tahlil qilish va idrok etish madaniyatini shakllantirish ham o'ziga xos ahamiyat kasb etadi; bo'lajak o'qituvchilar ota-onalarni ham o'quvchilar bilan birgalikda teleko'rsatuvlarni tomosha qilib, ularni tahlil qilish natijasida dinlar va millatlararo dialog madaniyatini shakllantirishda hamkorlik qilish kompetensiyasiga ega bo'lishlari muhim hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma/Tahrir hay'ati Qayumov A., Sultonov X., Alimov B va boshq.: Xalqaro Bobur fondi. – T.: “O'qituvchi” NMIU, 2008. – 288 b.
2. Alisher Navoiy. «Xayratul — abror». Tahrir hay'ati: A.Qayumov va boshq. So'z boshi muallifi A.Hayitmetov; Ma'sul muharir: V.Rahmonov. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1989. -352 b.
3. Mardonova F.B. The idea of religious tolerance in the philosophical literary heritage of central asian thinkers // Theoretical & Applied Science. 2020, No.6. 748-753.
4. Mardonov Sh.Q. Yangi ta'limiy qadriyatlar asosida pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish. –Toshkent: Fan, 2006. –232 b.

5. Маркова Н.Г. Формирование культуры межнациональных отношений студентов в поликультурном образовательном пространстве вуза. Автореф. Дисс. на соискание ученой степени док.пед.наук. – Казань – 2010.